

INVESTITSIYALARING IQTISODIY MOHIYATI VA JALB QILISH YO'NALISHLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Urakov Xurshid Akramovich

Аннотация. Ushbu maqolada investitsiya muhitining mohiyati, uni investitsiyalarni jalg qilishdagi ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilash bo'yicha amaliy taklif va tafsiyalar islab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *investitsiya, investitsion muhit, investitsiya jozibadorligi.*

Abstract. This article describes the essence of the investment environment, its importance in attracting investments, and the factors affecting it. Practical proposals and explanations for improving the investment environment in the country have been developed.

Key words: *investment, investment environment, investment attractiveness.*

Bozor iqtisodiyoti sharoiti ishlab chiqarish jarayonini turli mulkchilik shakllariga asoslangan erkin raqobat asosida, talab va taklif qonuni talablariga rioxaliga qilgan holda barqaror va samarali rivojlantirishni ta'minlashni birdan bir yo'li ishlab chiqarish sub'ektlari bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarni innovatsion-investitsiyalashtirish asosida ularni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni amalga oshirmay, erishib bo'lmasligini ko'rsatmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish O'zbekiston Respublikasi davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ko'plab davlatlar uchun mahalliy tabiiy xom ashyo va mehnat resurslari bilan uyg'unlashgan chet el investitsiyalari makro va mikro darajada investitsiyalar rolini o'ynab, davlatning tezkor iqtisodiy o'sishi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi. Chet ellik sarmoyadorlar o'zlarining investitsiyalariga qo'shimcha ravishda mamlakatga sivilizatsiyalashgan bozor elementlarini olib kelmoqdalar: yuqori sifatli menejment, boshqaruva tajribasi, marketing, innovatsion resurslar, axborot texnologiyalari, xalqaro hamkorlik va hamkorlik standartlari, ular o'rnatgan aloqalar va savdo yo'nalishlari orqali jahon bozoriga kirish.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-598-son 25.12.2019 qonuni qabul qilingan bo'lib ushbu qonun «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi va «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida»gi qonunlarning asosiy qoidalarini o'zida birlashtiradigan yagona konsolidatsiyalashgan hujjat hisoblanadi va xalqaro shartnomalarga muvofiq xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va kafolatlarini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yaratibberilgan.

3.1-jadval

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga moliyalashtirish manbaalari
bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (korxona va
aholining o'z vositalari), jami foizda**

Hududlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	81,6	83,8	81,5	74,7	34,7	48,6	48,6	45,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	76,3	70,0	76,9	77,2	34,8	53,1	53,1	65,4
Andijon	87,8	91,0	88,3	82,5	36,4	51,2	51,2	47,7
Buxoro	78,6	88,4	89,4	81,8	33,2	47,5	47,5	43,8
Jizzax	87,4	78,2	80,7	67,2	17,9	20,1	20,1	38,4
Qashqadaryo	83,0	86,4	84,1	87,6	24,7	56,7	56,7	60,9
Navoiy	83,2	89,2	86,0	65,8	49,8	60,6	60,6	40,7
Namangan	93,9	87,5	70,6	79,3	40,2	45,6	45,6	39,5
Samarqand	92,6	89,9	92,1	80,2	50,5	60,1	60,1	52,6
Surxondaryo	93,2	82,9	82,9	81,1	13,7	40,0	40,0	34,9
Sirdaryo	71,5	76,8	65,3	52,5	18,8	27,2	27,2	23,3
Toshkent	75,4	85,9	80,8	66,9	42,4	46,6	46,6	37,4
Farg'ona	85,8	82,1	85,6	83,6	35,2	50,2	50,2	47,3
Xorazm	89,5	88,6	87,1	89,6	38,7	42,7	42,7	48,9
Toshkent.sh	67,0	78,1	74,9	66,7	42,5	58,6	58,6	51,6

Manba: www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va mamlakatimiz tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar respublika mintaqalari bo'yicha kichik biznes tashkil etish va milliy iqtisodiyotimizni iqtisodiy jihatdan samarali rivojlanishini ta'minlash asosida aholining ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilab borishida bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy zarur bo'lgan moddiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratishda amalga oshirib, iqtisodiy yutuqlarini kichik biznesni keyingi yillar ichida rivojlanishini tahlili asosida ko'rish mumkin.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 21-avgustdan PQ-4812-sonli "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2017-2019-yillarda iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,1 barobariga, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga 2,8 barobar ortgan. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi investitsiya ulushi 2016 yildagi 21 foizdan 2019-yil yakuniga ko'ra 38 foizdan ko'proqqa o'sganligi, davlat tashqi investitsiya va tashqi savdoda yuqori faollik natijasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarining 1,24 barobarga, qurilishning 1,44 barobara o'sishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi yalpi ichki mahsulot tarkibida ulushi 24,1 foizdan 33,2 foizga o'sishiga olib kelgan.

Bu qarorga asosan korxonalarning kuzatuv kengashlaridagi yig'ilishlarda davlat boshqaruvi organlari majlislarida umumiy qiymati miqdori 50 ming barobardan yuqori bo'lgan import tovarlar (ishlar, xizmatlar) haridlarining asoslanganligiga oid masalalarning ko'rinishini ta'minlaydi va ishlab chiqarish zahiralarini, ya'ni to'planib qolgan import tovarlarini ishlab chiqarishga jalb qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishni ta'minlashi belgilab berilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga moliyalashtirish manbaalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi dinamik xarakterda ekanligi ushbu sohada zanuz yechimini topilmagan ayrim muammolar borligini ko'rsatadi.

2-jadval


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga moliyalashtirish manbaalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (chet el investitsiyalari va kreditlari), jami foizda

Xududlar	201 0	201 1	201 2	201 3	201 4	201 5	201 6	201 7	201 8	201 9	202 0	202 1
O'zbekiston Respublikasi	6,8	6,9	8,0	2,8	4,0	2,6	5,0	5,0	51, 6	39, 9	39, 9	43, 4
Qoraqalpog'is ton Respublikasi	8,1	4,4	35,0	7,9	0,6	6,3	3,2	3,9	46,7	33,4	33,4	20,7
Andijon	5,5	2,5	4,2	0,4	0,1	0,8	3,4	7,2	55,0	41,4	41,4	42,3
Buxoro	14,1	6,8	1,8	1,6	1,8	1,9	1,2	0,2	53,9	39,1	39,1	46,8
Jizzax	0,4	1,6	0,8	0,0	1,1	3,1	6,7	14,0	63,8	69,9	69,9	51,4
Qashqadaryo	13,1	1,1	2,7	1,3	0,1	0,1	10,0	0,3	70,3	34,5	34,5	30,0
Navoiy	2,1	1,7	5,7	0,7	2,3	1,6	3,5	5,5	39,5	34,5	34,5	49,9
Namangan	1,0	1,1	0,8	0,1	0,5	2,2	6,8	6,1	37,1	35,6	35,6	28,3
Samarqand	0,7	1,3	1,8	0,7	1,1	3,1	0,6	0,6	32,9	24,4	24,4	38,9
Surxondaryo	0,2	0,7	0,3	0,3	0,2	0,6	5,0	0,4	78,3	46,4	46,4	54,1
Sirdaryo	4,9	6,1	1,8	2,4	0,1	3,8	8,2	2,6	62,3	56,7	56,7	65,3
Toshkent	8,7	21,4	5,0	5,1	9,7	2,3	5,3	1,5	37,0	40,8	40,8	49,8
Farg'ona	1,7	11,4	4,0	0,1	0,2	2,0	1,7	1,5	53,8	42,2	42,2	45,8
Xorazm	1,5	0,3	0,1	0,0	12,8	1,3	5,3	0,3	48,9	39,2	39,2	42,3
Toshkent.sh	13,8	13,9	16,9	7,2	7,8	4,4	6,8	10,9	44,5	32,7	32,7	39,8

Manba: www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga moliyalashtirish manbaalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi, ya'ni aynan chet el investitsiyalari va kreditlari 2021-yilda mamlakat bo'yicha qariyb 6,4 marotabaga oshgan.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni tahlil qilinganda, asosiy katta salmog' Toshkent shaxri, Buxoro va Navoi viloyatlariga to'g'ri kelishi aniqlandi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hududiy xaritasi

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hududiy xaritasi yuqorida 3.1.1-rasmida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar qo'yidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

3.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ming so'm¹¹

Nº	O'zbekiston Respublikasi	6861,0
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4189,2
2	Andijon	3470,1
3	Buxoro	10462,9
5	Jizzax	6470,7
8	Qashqadaryo	5148,2
7	Navoiy	14672,4
6	Namangan	4477,8
9	Samarqand	3920,7
11	Surxondaryo	4438,7
10	Sirdaryo	9257,1
12	Toshkent	9644,5
4	Farg'ona	3272,3
13	Xorazm	4344,3
1	Toshkent.sh	20619,8
	O'zbekiston Respublikasi	6861,0

¹¹ Muallif ishlanmasi

Manba: www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hududlarda 2021-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi Toshkent shaxri, Buxoro va Navoi viloyatlaridan keyingi o'rinda Jizzax hamda Qashqadaryo viloyatlari turadi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari dinkamikasi asosan o'sish tendensiyasiga ega ekanligi qo'yidagi 3.4-jadvaldan ko'rinish turibdi.

3.4-jadval

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %

Yillar	2000	2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	101,0	105,7	104,2	109,4	104,1	119,4	129,9	138,1	95,6	102,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	83,0									
Andijon	101,0	129,2	94,6	105,1	102,4	114,3	113,7	129	110,6	106,0
Buxoro	108,0	120,7	73,6	98,7	120,8	154,7	60,6	95,9	104,7	147,4
Jizzax	111,0	111,5	118	96,9	102,7	108,2	158,1	194,9	147,4	72,4
Qashqadaryo	93,0	116,2	67,4	112,4	108,9	129,7	112,4	131,2	76,5	77,8
Navoiy	116,0	141,9	248,6	90,7	144,1	107,4	188	144,3	77,1	86,0
Namangan	103,0	97,1	90,3	108,5	108,2	110,2	178,1	131,1	88	100,5
Samarqand	104,0	110,6	127,4	115,8	103,4	105,7	131,4	134,5	128,8	98,7
Surxondaryo	102,0	136,4	95,8	110,3	107,6	148,4	164,2	144	77,4	109,7
Sirdaryo	100,2	89,6	153,9	97,9	107,9	115,4	131	186	111,2	107,7
Toshkent	106,0	112,7	104	99,3	87	118,4	139,9	158,5	92,2	120,3
Farg'ona	107,0	119,2	107,3	98,7	97,1	98,6	145,9	132	113,5	105,7
Xorazm	102,0	44,1	133,8	87,2	97,8	128,5	111,7	150,7	92,7	139,3
Toshkent sh.	92,0	88,4	147,6	102,3	119,5	121,4	138,2	145,8	108,6	105,0

Manba: www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlarini tahlil qilar ekanmiz, 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasida 105,1 foizni, Andijonda 106,0 foizni, Buxoroda 147,4 foizni, Namangan 100,5 foizni, Surxondaryo 109,7 foizni, Sirdaryo 107,7 foizni, Toshkent 120,3 foizni, Farg'ona 105,7 foizni, Xorazm 139,3 foizni, Toshkent sh. 105,0 foizni tashkil etib, o'sishga erishilgan. Biroq, 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan Jizzaxda 72,4 foizni, Qashqadaryoda 77,8 foizni, Navoiyda 86,0 foizni hamda Samarqandda 98,7 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi o'rganilganda, 2000-2021-yildagi ko'rsatkichlar variativ ekanligi aniqlandi. Bu esa investitsion faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borish lozimligini ko'rsatadi. Ikkinchi tomonidan jalb etilgan investitsiya qo'shimcha ishchi o'rirlarni yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. 1107 p.
2. Hillier D., Grinblatt M., Titman Sh. Financial Markets and Corporate Strategy. London: McGraw-Hill Higher Education, 2012. 877 p.
3. Korso E. Inclusive growth analysis and HRV: A methodological note. 2011. Elektron manba: <http://siteresources.worldbank.org>
4. Landesmann, Michael Alroy (2000): Structural Change in the Transition Economies, 1989 to 1999. The Vienna Institute for International Economic Studies.
5. Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporate Finance, and the Theory of Investment // American Economic Review, v. 48. (1958).
6. Modigliani F., Miller M. (1963) "Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction" American Economic Review, Vol. 53, No. 3, pp. 147 – 175.
7. Peter Brusov, Tatiana Filatova, Natali Orehova, Nastia Brusova. Weighted average cost of capital in the theory of Modigliani-Miller, modified for a finite lifetime company // Applied Financial Economics, v. 21, № 4.